KIBERJINOYAT RISKLARINI BOSHQARISH AMALIYOTINING KONSEPTUAL ASOSLARINING RIVOJLANISHI

Xasanov Umidjon Yusupovich
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: umidjonxasanov@gmail.com
ORCID: 0009-0003-5169-4233

DEVELOPMENT OF CONCEPTUAL BASIS OF CYBERCRIME RISK MANAGEMENT PRACTICE

Xasanov Umidjon Yusupovich
Independent Researcher, Bukhara State University
e-mail: umidjonxasanov@gmail.com
ORCID: 0009-0003-5169-4233

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kiberjinoyat risklarini boshqarish amaliyotining konseptual asoslari, ularning nazariy evolyutsiyasi hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sharoitida rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Tadqiqotda kiberxavfsizlikni ta'minlashda riskga asoslangan boshqaruv yondashuvining ahamiyati, kiberxatarlarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va kamaytirish mexanizmlari yoritilgan. Shuningdek, xalqaro standartlar, ilg'or xorijiy tajribalar va raqamli transformatsiya jarayonlarining kiberjinoyatlarga qarshi kurashish tizimiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida kiberjinoyat risklarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha konseptual yondashuvlar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *kiberjinoyat, kiberxavfsizlik, risklarni boshqarish, kiberxatar, axborot xavfsizligi, risklarni baholash, raqamli transformatsiya, konseptual yondashuv, riskga asoslangan boshqaruv, xalqaro standartlar.*

Abstract: *This article examines the conceptual foundations of cybercrime risk management practices, their theoretical evolution, and development trends in the context of modern information and communication technologies. The study highlights the importance of a risk-based management approach in ensuring cybersecurity, focusing on the identification, assessment, monitoring, and mitigation of cyber risks. It also analyzes the role of international standards, global best practices, and digital transformation in strengthening cybercrime prevention and response mechanisms. Based on the findings, the paper proposes conceptual approaches and practical recommendations for improving cybercrime risk management systems in both public and private sectors.*

Keywords: *cybercrime, cybersecurity, risk management, cyber risk, information security, risk assessment, digital transformation, conceptual framework, risk-based management, international standards.*

Kirish

Raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarining so'ngi yillardagi global iqtisodiy munosabatlar tizimida qo'llanilishi, jumladan turli mamlakatlar amaliyotlariga raqamlashtirilgan iqtisodiy munosabatlar kirib borishining sezilarli darajada keskin tezlashuvi natijasida kiberjinoyatchilik global iqtisodiy va institutsional barqarorlikka ta'sir etuvchi eng yuqori strategik tahdidlar qatorida tobora ustuvor ahmiyat kasb etib borayotganligi bilan bog'liq

tendensiyalar ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, davlat boshqaruvi, moliya, energetika, transport va mudofaa infratuzilmalarining raqamlashuvi kiberrisklarni oddiy texnik muammo emas, balki strategik boshqaruv kategoriyasi sifatida baholashni talab qilmoqda. Global darajadagi raqamli transformatsiyalashuv jaryonlarining jadallashuvi bugungi O‘zbekiston sharoitida raqamlashtirish, jumladan, "davlat boshqaruvini raqamli transformatsiyalash borasidagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish"[1] da kiberjinoyatchilik bilan bog‘liq bo‘lgan strategik boshqaruv amaliyotini takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltirmoqda.

"Raqamli O‘zbekiston – 2030"[2] strategiyasi doirasidagi islohotlar mamlakatda elektron hukumat konsepsiyasi asosida milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarini jadallashishi hisobiga kibermakondagi kiberjinoyatlar uchun shart-sharoitlar yaratilishiga sabab bo‘lishi bilan birgalikda, "kiberxavfsizlik sohasida davlat siyosati to‘g‘risida ishonchli va sifatli, obyektiv ma'lumotlarni taqdim etish orqali mamlakatning ijobiy imijini yaratish va uning xalqaro maydondagi obro‘sini mustahkamlash"[3] yo‘nalishidagi davlat dasturlari samaradorligini oshirish zaruriyatini uyg‘otmoqda. Bu esa bugungi sharoitda mamlakat davlat boshqaruvi tizimida kberjinoyat risklarini strategik boshqarish mexanizmini takomillashtirishning ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbligini tobora ortishiga olib kelmoqda.

Adabiyotlar sharhi

So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda kiberjinoyatlar soni, murakkabligi va iqtisodiy oqibatlari sezilarli darajada ortib bormoqda. Shu sababli kiberjinoyat risklarini boshqarish zamonaviy boshqaruv nazariyasining muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Bugungi kunda ushbu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar nafaqat axborot tizimlarini himoya qilish, balki tashkilotlarning strategik barqarorligi, raqamli transformatsiya va milliy xavfsizlikni ta'minlash bilan ham bevosita bog‘liq holda o‘rganilmoqda.

O‘zbekistonda raqamli davlat boshqaruvi va axborot xavfsizligini rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar kiberxavfsizlik tizimini takomillashtirishning institutsional asoslarini shakllantirdi. Jumladan, davlat boshqaruvini raqamli transformatsiya qilish bo‘yicha belgilangan vazifalar axborot tizimlarida risklarni boshqarish mexanizmlarini joriy etishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilaydi [1]. Shuningdek, "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi davlat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda zamonaviy axborot xavfsizligi infratuzilmasini yaratish zarurligini asoslab bergan [2]. Yangi qabul qilingan Kiberxavfsizlik strategiyasi esa kiberjinoyatchilikning oldini olish, risklarni prognozlash va tezkor javob qaytarish tizimlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratadi [3].

Strategik risklarni boshqarish nazariyasi nuqtai nazaridan Hussein moliyaviy institutlar misolida kiberxatarlarning korporativ boshqaruv tizimiga integratsiyalashuvi zarurligini asoslaydi. Muallif kiberxavflarni operatsion risk emas, balki strategik risk sifatida baholash lozimligini ta'kidlaydi [4]. Ahmed va hammualliflar rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini o‘rganib, samarali cyber risk governance tizimi tashkilotlarning barqarorligini oshirishda muhim omil ekanligini isbotlaganlar [5].

Cybercrime evolyutsiyasi bo‘yicha Abdullah va hammualliflar tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilish asosida kiberjinoyatlarning yangi shakllari, hujum usullari hamda ularni kamaytirish strategiyalarini tizimlashtirganlar [6]. Shu bilan birga, Alexander va Wang kiber risklarni boshqarishning mavjud nazariyalari, xalqaro standartlari, modellar va amaliy yondashuvlarini umumlashtirib, risklarni boshqarishda integratsiyalashgan konseptual modelni taklif etganlar [7].

Kiberjinoyatlar rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari Kuzior va hammualliflar tomonidan chuqur tahlil qilinib, sun'iy intellekt, bulutli texnologiyalar hamda IoT infratuzilmasining kengayishi yangi turdagi kiberxatarlarni yuzaga keltirayotgani ko‘rsatib berilgan [8]. Gunawan va hammualliflar esa strategik menejment va kiberxavfsizlik

o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni asoslab, risklarni korporativ boshqaruv strategiyasining ajralmas qismi sifatida ko‘rishni tavsiya etadilar [9].

Risklarni boshqarish nazariyasining axborot xavfsizligiga tatbiqi Bi va Jing tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular milliy axborot xavfsizligi tizimida klassifikatsiyalangan himoya mexanizmlari bilan risklarni boshqarish usullarining o‘zaro uyg‘unligini ko‘rsatganlar [10]. Harting va hammualliflar esa korxonalarda samarali risk-menejment amaliyotlari cyber performance ko‘rsatkichlarini sezilarli yaxshilashini empirik jihatdan isbotlaganlar [11].

Axborot xavfsizligi boshqaruv tizimining tashkiliy faoliyatdagi o‘rni Nowicka va hammualliflar tomonidan ISO standartlari asosida tahlil qilinib, axborot xavfsizligini boshqarish tizimi korporativ risklarni kamaytirishning asosiy vositalaridan biri sifatida baholangan [12]. Song internet boshqaruvi va milliy kiberxavfsizlik siyosatining uzoq muddatli evolyutsiyasini tahlil qilib, davlat siyosatining kiber risklarni kamaytirishdagi hal qiluvchi rolini asoslab beradi [13].

Korporativ risklarni boshqarish tizimining korxona samaradorligiga ta'siri Nayme va Taybi tomonidan o‘rganilib, Enterprise Risk Management (ERM) modelining raqamli tahdidlar sharoitida ham yuqori samaradorlik berishi aniqlangan [14]. Stevens esa cyber resilience konsepsiyasini an'anaviy cyber security yondashuvining mantiqiy davomi sifatida baholab, tashkilotlarning tezkor tiklanish salohiyatini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi [15]. Ushbu g‘oyani Hilger yanada rivojlantirib, cyber resilience tizimining adaptiv va tizimli modelini taklif etadi [16].

Kiberxavfsizlik monitoringi bo‘yicha CCV tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar real vaqt rejimida monitoring, indikatorlar tizimi va uzluksiz nazoratning samaradorligini asoslab beradi [17]. Zamonaviy monitoring tizimlarini sun'iy intellekt asosida avtomatlashtirish masalalari Wang va hammualliflar tomonidan mashinali o‘qitish algoritmlari yordamida tarmoq anomal holatlarini aniqlash misolida keng yoritilgan [18]. Minkevics va Grabis esa avtomatlashtirilgan monitoring hamda javob qaytarish platformalarini capability-driven yondashuvi asosida ishlab chiqib, kiberxavflarga javob berish vaqtini sezilarli qisqartirish mumkinligini isbotlaydilar [19].

So‘nggi ilmiy tadqiqotlarda sun'iy intellekt asosidagi davlat boshqaruvi va bashoratli boshqaruv (predictive governance) konsepsiyasi ham kiber risklarni boshqarish bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda. Dragomir va Norari AI texnologiyalaridan foydalangan holda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish bilan bir qatorda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda kiberxavfsizlik risklarini muvozanatli boshqarish zarurligini ta'kidlaydilar [20].

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarning aksariyati kiberxavfsizlikning texnik jihatlariga yoki alohida boshqaruv vositalariga qaratilgan. Biroq kiberjinoyat risklarini kompleks, konseptual va institutsional yondashuv asosida boshqarish mexanizmlarini integratsiyalashgan holda tadqiq etish masalalari hali yetarli darajada yoritilmagan. Mazkur maqolada aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida kiberjinoyat risklarini boshqarish amaliyotining konseptual asoslari tizimli ravishda tahlil qilinadi hamda zamonaviy boshqaruv modelini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda kiberjinoyat risklarini boshqarish amaliyotining konseptual asoslarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy bazasini kiberxavfsizlik, risk-menejment, axborot xavfsizligi hamda raqamli boshqaruv sohasidagi ilmiy adabiyotlar, xalqaro standartlar va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, mantiqiy tahlil hamda sintez usullaridan foydalanildi. Kiberjinoyat risklarini boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari, ularning evolyutsiyasi va amaliyotda qo‘llanilayotgan modellari o‘zaro taqqoslanib, ularning afzalliklari va cheklovlari baholandi.

Shuningdek, xalqaro ilmiy maqolalar, institutsional hisobotlar va ilg‘or xorijiy tajribalar kontent tahlili asosida o‘rganildi. Risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va ularga javob berish bosqichlari konseptual jihatdan umumlashtirilib, kiberjinoyat risklarini boshqarishning integratsiyalashgan modeli ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalarini asoslashda mantiqiy umumlashtirish va ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

Qo‘llanilgan metodologiya kiberjinoyat risklarini boshqarish tizimining institutsional, tashkiliy va texnologik jihatlarini kompleks baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

So‘nggi yillarda iqtisodiy fanda kiberjinoyat risklarini strategik boshqarish nazariyalaring davlat boshqaruvi bilan aloqador bo‘lgan nazariyalari rivojlanish bosqichlari va har bir bosqichning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan A. Hussein[4], A. Ahmed[5], M. Abdullah[6], S.A. Aleksander[7], A. Kuzior[8], B. Gunavan[9] kabi xorijlik olimlarning ilmiy ishlarini tizimli tahlil qilish orqali mazkur yo‘nalishdagi ilmiy nazariy yondashuvlarning 1960-yildan keyingi davrda shakllanib, tarkibiy jihatdan olti bosqichli (1-rasmga qarang) rivojlanishning turli davrlarida yanada takomillashib borayotganligini aniqlashga erishdik.

O‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, davlat boshqaruvi nuqtayi nazaridan kiberjinoyat risklarini boshqarish nazariyasining dastlabki asoslari milliy xavfsizlik va axborot muhofazasi konsepsiyalarining 1960-1980-yillardagi an’anaviy xavfsizlik bosqichi hisoblangaan ilk ilmiy qarashlariga borib taqalib, ushbu davrda “davlat boshqaruvi tizimida axborot xavfsizligi asosan texnik va fizik muhofaza nuqtayi nazaridan talqin qilinib, kompyuter tizimlarining davlat muassasalariga joriy qilinishi boshlanishi bilan axborot resurslarini tashqi aralashuvdan himoya qilish”[10] masalalari kun tartibiga chiqqan.



1-rasm. Davlat boshqaruvi tizimida kiberjinoyat risklarini strategik boshqarish nazariyalarining evolyutsion rivojlanish bosqichlari[1]

[1] Muallif tomonidan tuzilgan

Tahlillarga ko‘ra, ushbu "bosqichda risk ehtimoliy yo‘qotish yoki noaniqlik omili sifatida ilmiy asosda o‘rganila boshlanishi hisobiga, riskni identifikatsiya qilish, baholash va monitoring qilishga qaratilgan yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etib, ayniqsa, davlat boshqaruvi qarorlarini qabul qilishda ehtimoliy xavflarni oldindan baholash tamoyili shakllanishi kibermuhitdagi tahdidlarni boshqarish uchun nazariy bazaning yaratilishiga xizmat qilgan"[11] ligini aniqlashga erishdik.

1995-2005-yillarda global darajadagi internet texnologiyalarining ommalashuvi va elektron hukumat elementlarining taraqqiy etgan mamlakatlar amaliyotlariga joriy etilishi ulardagi davlat boshqaruvida axborot xavfsizligiga nisbatan yondashuvlarni keskin o‘zgartirib, ushbu davr mobaynida "axborot xavfsizligini boshqarishning institutsional mexanizmlari shakllanishini ta’minlash bosqichi amal qilib, mazkur yo‘nalishdagi boshqaruvni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro standartlar va normativ tizimlar ishlab chiqilgan"[12] ligini inobatga olib, bosqichni axborot xavfsizligining institutsionallashuv bosqichi sifatida baholash mumkin bo‘ladi, degan xulosaga keldik.

2005-2015-yillarda kiberxavfsizlik milliy xavfsizlikning strategik ahamiyat kasb etuvchi ustuvor yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lib, ushbu davrda davlat boshqaruvi tizimida kiberjinoyat risklarini strategik boshqarish konsepsiyalari shakllanib, milliy kiberxavfsizlik strategiyalari qabul qilina boshlangan hisoblanadi. Tahlillarga ko‘ra, ushbu bosqichning o‘ziga xos xususiyati "kibertahdidlarni davlat boshqaruvi barqarorligiga ta’sir qiluvchi strategik omil sifatida baholanishi bilan birgalikda, davlat boshqaruvi tizimlarida risklarni kompleks baholash, ehtimoliy ssenariylarni modellashtirish va institutsional muvofiqlashtirish mexanizmlarining joriy etilgan"[13] ligida namoyon bo‘ladi. Jumladan, mazkur bosqichdagi rivojlanish tendensiyalari kiberjinoyat risklarini boshqarish amaliyotida "Korxona risklarini boshqarish (Enterprise Risk Management – ERM)"[14] integral yondashuvlar keng qo‘llanilishi hisobiga, risklarni davlat siyosati darajasida muvofiqlashtirish amaliyotini rivojlantirish imkoniyatini yaratgan hisoblanib, buning natijasida kibertahdidlarni oldindan aniqlash va strategik qarorlar qabul qilish mexanizmi mustahkamlangan hisoblanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ushbu bosqichda davlat organlari o‘rtasidagi integratsiya va axborot almashinuvi muammolari to‘liq hal qilinmganligi hisobiga ularni keyingi davrlarda ham saqlanib qolganligini ko‘rish mumkin bo‘ladi.

2015-2020-yillar kiberjinoyat risklarini strategik boshqarish nazariyalari evolyutsiyasida "Kiberbarqarorlik (Cyber Resilience) konsepsiyasi"[15] shakllangan bosqich sifatida namoyon bo‘lib, ushbu konsepsiya mohiyati "raqamli davlat boshqaruvining kengayishi kiberhujumlarga nisbatan faqat himoya emas, balki barqarorlikni ta’minlash"[16] ga ustuvorlik qaratilishi bilan izohlanadi. Kiberbarqarorlik konsepsiyasiga ko‘ra, davlat boshqaruvi tizimi kiberhujumni to‘liq oldini olishga emas, balki hujum sharoitida ham o‘z funksionalligini saqlab qolishga yo‘naltirilishi lozim bo‘lganligi sababli, moslashuvchan boshqaruv, intellektual monitoring va dinamik risk baholash mexanizmlari amaliyotga joriy etildi. Tahlillarga ko‘ra, mazkur bosqichda davlat tizimlarining tashqi kiber ta’sirlarga moslasha olish qobiliyatini kengaytirishga ustuvorlik qaratilishi bilan birgalikda, davlat boshqaruvida risklarni doimiy monitoring qilish, real vaqt (Real-Time) tahlili va institutsional muvofiqlashtirish kabi chora-tadbirlarni amaliyotga joriy etishga erishilgan hisoblanadi.

2020-yildan keyingi davr kiberjinoyat risklarini boshqarishda "sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data) bazasi"[17], "mashinali o‘qitish (Machine Learning – ML)"[18] va prognozlash analitikasiga asoslangan yondashuvlar bilan tavsiflanuvchi proktiv raqamli boshqaruv bosqichi sifatida baholanadi. Davlat boshqaruvida kibertahdidlarni oldindan aniqlash, "avtomatlashtirilgan monitoring"[19] va "bashoratli boshqaruv (Predictive Governance)"[20] mexanizmlari joriy qilinishi

davlat boshqaruvi tizimida kiberrisklarni boshqarish reaktiv emas, balki proaktiv va oldindan ogohlantiruvchi modeliga o‘tishiga xizmat qilayotganligini aniqlash orqali ushbu bosqichni proaktiv raqamli boshqaruv bosqichi sifatida baholashni lozim topdik.

Xulosa va takliflar:

Umuman olganda, davlat boshqaruvi tizimida kiberjinoyat risklarini strategik boshqarish nazariyalarini evolyutsion yondashuv orqali tahlil qilish hisobiga mazkur jarayonlar reaktiv xavfsizlik modelidan proaktiv va intellektual boshqaruv modeligacha bo‘lgan izchil rivojlanishni namoyon etib, dastlabki bosqichlarda texnik muhofazaga asoslangan yondashuvlar ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, keyingi bosqichlarda risklarni strategik baholash, kiberbarqarorlik va raqamli prognozlash konsepsiyalari shakllangan hisoblanadi. Shu jihatdan, zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida kiberjinoyat risklarini samarali boshqarish kompleks, institutsional va texnologik integratsiyaga asoslangan ko‘p bosqichli strategiyani talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat boshqaruvini raqamli transformatsiya qilish va samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-68-son farmoyishi, 28.11.2025-y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmoni, 05.10.2020-y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-38-son farmoni, 10.03.2026-y.
4. Hussein A. Strategic Risk Management in the Age of Cyber Threats: Implications for Financial Institutions. European Journal of Business and Strategic Management, Vol.10, Issue 4, No.1, 2025. – pp. 1-14. DOI: 10.47604/ejbsm.3331
5. Ahmed A., Mensah A., & Owusu E. Cyber risk governance in emerging markets: A case of African financial institutions. Information & Computer Security, 29 (3), 2021. – pp. 455-472.
6. Abdullah M., Nawaz M.M., Saleem B., Zahra M., binte Ashfaq E., and Muhammad Z. Evolution Cybercrime – Key Trends, Cybersecurity Threats, and Mitigation Strategies from Historical Data. Analytics, Vol. 4 (25), 2025. – pp. 1-44. DOI: 10.3390/analytics4030025
7. Alexander C.A. Wang L. Cyber risk management: Theories, frameworks, models, and practices. Computer and Telecommunication Engineering, Vol. 3 (1), 2025. – pp. 1-11. DOI: 10.54517/cte3118
8. Kuzior A., Tiutiunyk I., Zielinska A., Keleman R. Cybersecurity and cybercrime: Current trends and threats. Journal of International Studies, Vol. 17 (2), 2024. – pp. 220-239
9. Gunawan B., Ratmono B.M., Abdullah A.G. Cybersecurity and Strategic Management. Foresight and STI Governance, Vol. 17 (3), 2023. – pp. 88-97
10. Bi M., Jing Y. Risk Management Theory Application in national information security risk control – Analysis of the relationship between classified protection and risk management. International Conference on Automation, Mechanical Control and Computational Engineering (AMCCE), Published by Atlantis Press, 2015. – pp. 1830-1835
11. Harting R.Ch., Bueechl J., Anderlohr Ph., and Betz L. The Impact of Effective Risk Management on the Cyber Performance of Enterprises. 29th International Conference on Knowledge-Based and Intelligent Information & Engineering Systems (KES 2025), Procedia Computer Science Vol. 270, 2025. – pp. 4343-4352

12. Nowicka J., Ciekanowski Z., Milewska A. Information Security Management as the Basis for the Functioning of an Organization. European Research Studies Journal Volume XXVII, Issue 3, 2024. – pp. 128-141
13. Song Ch. Erosion of Internet Governance by Cybersecurity Threats? A Longitudinal Analysis of the Evolution of National Cybersecurity. SSRN, Sep., 2024. – 36 pages. [Online Resource] URL: https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4953149
14. Nayme F., Taybi I. Enterprise Risk Management Practices and Their Impact on Firm Performance: Evidence from Multinational Corporations. Journal of Management and Informatics (JMI), Vol. 4, No. 2, 2025. – pp. 909-930
15. Stevens T. SIX Cyber Resilence. In Book: Cyber Risk. Publisher: Bristol University Press, April, 2026. – pp. 80-96
16. Hilger R.P. From cybersecurity to cyber resilience: a systemic and scalable approach for improving resilience and adaptive capacity. Journal of Cybersecurity, Vol. 12 (1), 2026. – pp. 1-10. DOI: 10.1093/cybsec/tyag011
17. Cyber Security Monitoring. Het Centrum voor Criminaliteitspreventie en Veiligheid (CCV), May, 2026. – 51 pages.
18. Wang S., Balarezo J.F., Kandeepan S., Al-Hourani A., Chavez K.G., and Rubinstein B. Machine Learning in Network Anomaly Detection: A Survey. IEEE Acces, Vol. 9, 2021. – pp. 152379-152396
19. Minkevics V., and Grabis J. A capability-driven automated cybersecurity monitoring and response system. Frontiers in Computer Science, Vol. 7, 2025. – pp. 1-13. DOI: 10.3389/fcomp.2025.1692263
20. Dragomir A.N., Norari A. Predictive Governance. Balancing Efficiency and Liberties in AI-Driven Bureaucracy. Perspectives of Law and Public Administration, Vol. 14, Issue 2, 2025. – pp. 339-353